<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Boshlovchi ma`ruza mavzusi va ma`ruzachilarning taqdimotlarini e`lon qiladi.</li> <li>2. Ma`ruza 5 minut davom etadi.</li> <li>3. Taqrizchi – 2 minut.</li> <li>4. Raqib – ma`ruza mavzusi bo`yicha fikrlarini 1-3 minut taqdim etadi.</li> <li>5. Jamoaviy muhokama – 5-10 minut.</li> </ol>

*2-ilova*

### *Blits-surovl uchun savollar*

1. Biologiya fanining o`rganish obyekti nima?
2. Qanday biologik qonunlarni bilasiz?
3. Qaysi olim biologik qonunlarni tilshunoslikka olib kirgan?
4. A. Shleyxerning qaysi noto`g`ri xulosasi insoniyat boshiga og`ir kulfatlarni yog`dirgan?
5. Inson borliqni qanday qabul qiladi?
6. Nerv sistemasining faoliyati nimadan iborat.
7. Nima uchun odam miyasi murakkab funksional sistema deyiladi?
8. Lingvistika va tibbiyot fanlarining bog`liqligi nimalarda seziladi?

## Guruhlarda ishlash uchun topshiriqlar

## 1-guruh

1-topshiriq. Ushbu fikr to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlang (javobni asoslang).

Geneologik metod haqida ma'lumot bering. Ushbu metodning maqsadi nima?

2-topshiriq. Muammoli savolga aqliy hujum usulida javob toping.

Irsiy omillar va ularning inson hayotiga ta'siri qanday?

## 2-guruh

1-topshiriq. Ushbu fikr to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlang (javobni asoslang).

Tabiatda kuchlilar kuchsizlar ustidan g'alaba qilib, yashovchanlik xususiyatiga ega. Agar tilshunoslikka bu fikr yo'naltirilsa, xind-german tillari (ya'ni flektiv tillar) yashash uchun kurashda g'alaba qilmoqda va boshqa tillarni siqib chiqarish hisobiga dunyoni zabt etib bormoqda.

2-topshiriq. Muammoli savolga aqliy hujum usulida javob toping.

Olamni belgilashtirish tushunchasini yoritib bering.

## 3-guruh

1-topshiriq. Ushbu fikr to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlang (javobni asoslang).

Jahon tillarining geneologik tasnifiga ko'ra konkret tillar til guruhlariga, til guruhlari til tarmoqdariga, tarmoqlar esa til oilalariga birlashtirilgan.

2-topshiriq. Muammoli savolga aqliy hujum usulida javob toping.

Neyrolingvistika, psixolingvistika, neyropsixologiya, neyrofiziologiya, psixoakustika, kibernetika kabi oraliq fanlar tabiatini kompleks tarzda o'rganishning bir tarmog'i deb qaraydilar. Shu to'g'rimi? Nima uchun?

## Aqliy hujum va masalani yechish bosqichlari

1. Mustaqil fikrlang xayolingizga kelgan barcha g'oya, fikrlarni qog'ozga yozing.
2. Barcha g'oya va fikrlarni yozing, agar ular takrorlanayotgan bo'lsa, maxsus belgi qo'ying.
3. G'oyalarni baholang.
4. Eng maqbo'l g'oya guruh g'oyasi sifatida shakllantiriladi.
5. Barcha yozilgan g'oyalarni guruh muammosini yechish uchun guruhlashtirish mumkin.
6. Guruhning umumiy javobi shakllantiriladi.

## Mavzu: Tilshunoslik va biologiya

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	o`qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, darsning maqsadi, rejadagi o`quv natijalarini e`lon qiladi, ularning ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi. 1.2. Olingan bilimlarni tekshirish maqsadida asosiy tushunchalar borasida savol-javob o`tkazadi (5-ilova). 1.3. Dars mashg`uloti guruhlarda ishlash texnologiyasidan foydalangan holda amalga oshirilishini e`lon qiladi. Guruhda ishlash qoidalarini eslatadi. Ish tartibi va reglamentni aniqlashtiradi (1, 2-ilovalar).	1.1. Eshitadilar, mavzuni yozadilar, savollarga javob beradilar va aniqlashtiradilar.
2 – bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Talabalarni 3-6 nafardan qilib guruhlariga ajratadi. Nazorat va natijalarni baholash uchun ekspertlar guruhini shakllantiradi. Guruhlarga o`quv topshiriqlarini topshiradi (3-ilova). Baholash ko`rsatkichlari va mezonlari (4-ilova) bilan, qanday qo`shimcha materiallardan foydalanish mumkinligi bilan (darslik, ma`ruzalar matni, Prezident I.A.Karimov asarlari) tanishtiradi. Guruhlarda ishlash boshlanganligini e`lon qiladi. 2.2. Taqdimot va natijalarni baholashni tashkil etadi. Izohlaydi, javoblarni tartibga keltiradi, asosan ishlarni bajarish jarayonida shakllangan xulosalarni umumlashtiradi.	2.1. O`quv topshiriqlari, baholash mezonlari bilan tanishadi, topshiriqni guruhga taqsimlaydi, umumiy ma`ruzani shakllantiradi. 2.2. Natijalarni prezentatsiya qiladi, nazorat savollariga javob beradi. Qolgan ishtirokchilar taqdimotni to`ldiradilar va savollar beradi. Ekspertlar baholaydi.
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1. O`quv faoliyatini yakunlaydi. Talabalar diqqatini asosiy jihatlariga qaratadi. Muammoni hal qilish jarayonida g`olib bo`lgan guruhni aniqlaydi va baholaydi. 3.2. Mustqil ish uchun vazifa beradi.	4.1. Eshitadilar. 4.2. Topshiriqni oladilar.

### 1-ilova

<p><i>Seminarda ishlash tartibi va reglament</i></p> <p>1. Guruhda ishlash va prezentatsiyani yozish – 20 min. 2. Ishning natijalarini taqdimot etish – 5 min. 3. Jamoa bo`lib muhokama qilish va guruhni baholash – 5 min.</p>
---

### 2-ilova

<p><i>Guruh bilan ishlash qoidalari</i></p> <p>Guruhning har bir a`zosi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- o`z sheriklarining fikrlarini hurmat qilishlari lozim;</li> <li>- berilgan topshiriqlar bo`yicha faol, hamkorlikda va mas`uliyat bilan ishlashlari lozim;</li> <li>- o`zlariga yordam kerak bo`lganda surashlari mumkin;</li> <li>- yordam suraganlarga ko`mak berishlari lozim;</li> <li>- guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim.</li> </ul>
--

## Guruhlarga topshiriqlar

## 1-guruh

## 1-topshiriq. Test.

Kimyo fanida atom-molekulyar ta'limot asoschisi kim?

- A). Farobiy
- B). M.Lomonosov
- S). Ibn Sino
- D). Beruniy.

2-topshiriq. Atomga tenglashtirilayotgan fonemaning bo`linuvchanlik xususiyatini tushuntiring.

## 2-guruh

## 1-topshiriq. Test.

Struktur tilshunoslikning paydo bo`lishiga qaysi ta'limot asos bo`ldi?

- A). Ehtimollik nazariyasi;
- B). Maydon nazariyasi;
- S). atom-molekulyar ta'limoti;
- D). Evolyutsiya nazariyasi.

2-topshiriq. Tilshunoslikda sinxroniya va diaxroniya nazariyasining vujudga kelishi haqida ma'lumot bering.

## 3-guruh

## 1-topshiriq. Test.

Valentlik nazariyasini tilshunoslikka tatbiq qilgan olim

- A). Ferdinand de Sossyur
- B). Lui Yelmslev
- S). S.D.Katsnelson
- D). Boduen de Kurtene.

2-topshiriq. Tilshunoslikda sistemaviy tadqiqot usuli haqida ma'lumot bering.

## 4-ilova

## Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari (ball)

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari (ballarda)	guruhlar		
	1	2	3
1-topshiriq (0,5)			
2-topshiriq:			
-mavzuga mos kelishi, ko'rgazmalilik(1,0);			
-mantiqiylik, aniqlik (0,5);			
-xulosalarning aniq shakllantirilganligi (0,5)			
Reglament (0,2)			
Nazariy savollariga to'g'ri javob uchun (0,2)			
Boshqalar tomonidan to'ldirilganligi uchun (0,1)			
Jami: (3.0)			

## 5-ilova

## Muammoli savollar

1. Atom-molekulyar ta'limotining mohiyatini tushuntiring.
2. Nega fonema atomga tenglashtirilgan?
3. Til birliklari ichida eng kichik birlik qaysi?
4. Butun tarkibidagi bo'laklar o'rtasidagi ozaro munosabat deganda nimani tushunasiz?
5. Tilshunoslikda sistemaviy tadqiqot usulining ahamiyati nimada?
6. Tilshunoslikda sinxroniya va diaxroniya nazariyasiga ta'rif bering.



## Mavzu: Tilshunoslikning kimyo bilan munosabati

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	o'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusi maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi. 1.2. Mashg'ulot munozara tarzida o'tishini ma'lum qiladi.	1.1. Diqqat bilan tinglaydilar va yozib oladilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish (10 min.)	2.1. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosida blits-surov o'tkazadi (1-ilova) 2.2. Ish guruhlarda / juftliklarda o'quv vazifani bajarilgandan so'ng "Muammoli seminar" sifatida davom ettirilishini e'lon qiladi. "Muammoli seminar" qoidalarini bilan tanishtiradi (2-ilova). Guruhlarda ishlash qoidalarini eslatadi.	2.1. Mavzu bo'yicha tushunchalarga ta'rif beradilar.
3 – bosqich. Asosiy (55 min.)	3.1. Talabalarni 4 ta guruhlariga ajratadi. Davra suhbatida muhokama qilish uchun savollar va vazifalarni tarqatadi (3-ilova). Vazifani bajarishda qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkinligini ta'kidlaydi. 3.2. Guruhlarni o'zaro baholashni tashkil etadi. Natijalarni baholash varaqlarini tarqatadi (4-ilova). 3.3. Guruhlarda ish boshlaganligini e'lon qiladi, maslahatlar beradi. 3.4. Prezantatsiyalarni taqdim etishlarini taklif qiladi va munozarani shakllantiradi. Munozara bo'yicha xulosalar qiladi.	3.1. O'quv vazifasi oladilar va tanishib chiqadilar. 3.2. Vazifani bajaradilar, taqdimot varaqlarini rasmiylashtiradi. 3.3. Boshqa guruhlar uchun savollar tayyorlaydi. Munozarada ishtirok etadilar. Yozib oladilar.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. Ishga yakun yasaydi umuiy xulosalar qiladi talabalarni baholaydi. 4.2. Mustaqil ish uchun vazifa beradi.	4.1. Tinglaydilar, vazifani yozib oladilar.

*I-ilova*

### *Blits-surovl savollari*

Aksioma nima? unga misollar keltiring.  
Boshlang'ich tushunchalar, postulatlarini belgilash qanday amalga oshiriladi?  
Grammatikaning aksioma va teoremlariga o'zingiz misollar keltiring.  
Keltirib chiqarish qoidalarini deganda nimani tushunasiz?  
O'zbek tilshunosligida formallashtirish va modellashtirish ishlari qanday holatda?  
Gap bo'laklarining dunyo tilshunosligida modellashtirish haqida nimalarni bilasiz?  
Grammatikaning aksioma va teoremlariga o'zingiz misollar keltira olasizmi?  
O'zbek tilida sodda va qo'shma gaplarni modellashtirishga aniq namunalar keltiring.  
Lisoniy model va matematik modelning uzviy bog'liqligi nimada?  
Tilshunoslikning qaysi jabhalarini modellashtirib bo'lmaydi va nega?  
So'z yasash modellariga turli tillardan misollar keltiring.

### *O'quv materiallari*

Model (lotincha "*modelus*") moddiy qurilma tushunchasini beradi. Atrofimizni o'rab turgan barcha mavjud narsalarga taqlidan yoki ko'rinishini ularga o'xshagan qolipi, andozasini yaratish o'sha narsaning *modeli* deyiladi. Narsaning qolipi `ki andozasi biz uchun asos vazifasini bajaradi, yani biz abstrakt yoki aniq narsalarning shaklini o'zimizga mos o'lganda – kattalashtirib, kichraytirib yoki sxemalashtirib olish imkoniga ega bo'lamiz. Bu esa bizga tadqiqot ishini olib borishimizga qulaylik tug'diradi. Masalan, chevarlarning fndozasi, kosiblarning qolipi, muzeylardagi mulyag'lar, turli jarayonlarni aks ettiruvchi sxemalar. Qolip, andoza va sxemalar o'zlari aks ettirayotgan narsalarning moddiy modeli bo'lib xizmat qiladi. Model narsa va tushunchalarni ilmiy bilishimizga yordam beradi, yani o'rganayotgan narsani soddalashtirib beradi, ajratib beradi va o'sha narsani ta'riflashimizni osonlashtiradi.

Model dastlab ma'lum bir sohalarda amaliy tarzda qo'langan. Sekin-asta boashqa fanlarga tatbiq etila boshlandi. Shunday fanlar qatoriga matematika, kimyo, biologiya, geometriya kabilar kiradi. Modellarning uch turga ajratish mumkin:

*Tabiiy modellar* – o'rganilayotgan narsa bilan bir turda bo'ladi va undan faqat o'lchamlari jarayonlarining tezligi va ba'zi hollarda yasalgan materiali bilan farq qiladi.

*Matematik modellar* – prototipdan (asl nusxadan) jismoniy tuzilishi bilan farq qiladi, lekin prototip bilan bir xil matematik tasvirga ega bo'ladi.

*Mantiqiy-matematik modellar* – belgilardan iborat bo'lib, abstrakt model hisoblanadi va tafakkur jarayonini o'rganishda qo'llaniladi.

Modellashtirish har bir fan obyektini soddalashtiradi. Tilshunoslikda lingvistik birliklarni modellashtirish bu belgilar tarkibidagi elementlarning barqaror munosabatlariga asoslanadi. Shuning uchun ham butunlik tarkibidagi elementlar o'rtasida munosabatlarning barqaror va beqaror turlarga ajratilishi lingvistik modellashtirish uchun katta ahamiyatga ega. Modellashtirish barcha fanlar uchun xos bo'lgan umumilmiy metod hisoblanadi va u quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

-*deduktivlik* – mantiqiy xulosa chiqarishga asoslangan bo'ladi, xususiylikdan umumiylikka tamoyilida bo'ladi;

-*tafakkur eksperimentidan* foydalanish;

-*modelni ideallashtirilgan obyekt sifatida* talqin qilish.

Modellashtirish obyektini umumlashtirish darajasiga ko'ra quyidagicha bo'ladi:

Lingvistik faktni tavsiflashga qaratilgan analitik model.

Oraliq model yoki to'ldiruvchi model.

Maksimal umumlashtirishga asoslangan sintezlovchi model.

Lingvistik model tushunchasi struktur tilshunoslikning E.Sepir, L.Blumfeld, R.Yakobson, Xomskiy, Harris, Xokket kabi namoyandalari tomonidan kirib kelgan. Uning taraqqiyoti esa XX asrning 60-70-yillariga (matematik va kibernetik lingvistik rivojlana boshlagan davrga) to'g'ri keladi. Lingvistik modelni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

Inson nutqiy faoliyati moderllari. Bu modellar konkret nutq jarayonini va hodisalarini aks ettiradi. Masalan, aniq bir tovushning talaffuz modeli yoki nutqning yuzaga chiqish modeli.

Lingvistik tadqiqot modellari. Bunda muayyan til hodisalari asosida olib borilgan tadqiqot jarayonini aks ettiradi.

Metamodellar – bunda lingvistik modellar saralanadi, u gipotetik-deduktiv harakterga ega bo'ladi, o'ta abstraktlashgan va ratsionallshgan bo'ladi.

Modellashtirish metodi ayrim tillarda, jumladan, ingliz tilida faol tadbiiq qilingan. O'zbek tilida sodda gap qurilishi: **S + O + V** : Men kitob o'qidim. Men xat yozdim.

**S = ega, O = to'ldiruvchi, M= hol, V = kesim.**

O'zbek tilida qo'shma gapning eng kichik modeli quyidagicha bo'ladi:

**S<sub>1</sub> + V<sub>1</sub>, S<sub>2</sub> + V<sub>2</sub> : Bahor keldi, ishlar qizib ketdi.**

Ingliz, rus tillarida sodda gap qurilishi quyidagicha belgilangan: **S + V + O**:

**Я пишу диссертацию.**

**Он читает книгу.**

**I have read the book.**

**I am writing a research work**

Modellashtirish metodi keyingi paytlarda tilshunoslikda faol tadbiiq qilina boshlandi. Bunda olimlar bu metodning bir qator afzalliklari va pragmatik jihatlarini nazarda tutadilar. Buni quyidagicha izohlash mumkin:

-birinchidan, modellashtirish amaliy metod hisoblanadi, tavsifiy emas.

-ikkinchidan, modellashtirish metodi har qanday sharoitda optimal hisoblanadi. **Optimal** – eng qulay, eng yaxshi degan ma'nolarni ifodalaydi.

-uchinchidan, modellashtirish metodi ekonomiya prinsipiga tayanadi. Bunda so'z tejiladi.

-to'rtinchidan, obyektini tushuntirish va izohlashni osonlashtiradi va soddalashtiradi.

Borliqdagi hamma narsalarning ijobiy va salbiy tomonlari bo'lgani kabi, modellashtirish metodining ham pozitiv va pragmatik tomonlari bilan birga salbiy tomonlari ham bor. Uning kamchiliklari, salbiy tomonlarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

-birinchidan, modellashtirishda faqat struktur va formal belgilarga asoslaniladi. Bunda mazmuniy tomon, semantiq qirralar e'tibordan chetda qoladi. Vaholanki, har qanday hodisaning, xususan, lisoniy hodisaning, mohiyati shakl va mazmun birligida o'z ifodasini topgan bo'ladi.

-ikkinchidan, bizning obyekt haqidagi bilimlarimiz rivojlanib borgan sari modellar eskiradi. Avvalgi bilimlarni inkor qilish hisobiga fan rivojlanadi. Mavjud modellar bilimlarimiz ufqini cheklaydi va xato tasavvurlarga olib keladi.

-uchinchidan, tabiat va jamiyatdagi hech bir narsa boshqa obyektlar ta'siridan holi bo'lmaydi. Ya'ni modellar nisbiylik harakteriga ega bo'ladi, biz ularni mutlaq haqiqat sifatida qabul qila olmaymiz.

Aksiomatik nazariya miloddan avvalgi VII-VI asrlarda shakllangan. Bu nazariyaning yuzaga kelishida **Yevklid**, **Pifagor** kabi olimlarning xizmatlari katta. Aksiomatik nazariyaning bosqichlari:

1. **Postulat** – yunoncha "**talab**" ma'nosini anglatadi. Qadimgi dialektika o'yinida har bir kishining ilgari surgan g'oyasi, fikri. Uni tasdiqlash ham, inkor qilish ham mumkin.

2. **Aksioma** – yunoncha "**hurmat qilaman**" ma'nosini anglatadi. U ilmiy nazariyaning hech qanday mantiqiy isbotsiz to'g'ri deb tan olinuvchi va boshqa ilmiy xulosalar uchun asos bo'luvchi maqbo'l varianti.

3. **Teorema** – aksiomlardan mantiqan keltirib chiqariladigan jumlarlar, u shart, isbot va xulosa qismlariga ega.

Aksiomatik nazariya quyidagi talablarni qanoatlantirishi kerak:

-**ziddiyatsizlik**– aksiomalar tizimining shunday xossasi bo`lib, unga ko`ra, sistemaning hech qanday ikkita holati bir-biriga zid kelmasligi kerak.

-**to`lalik** – aksiomalar sistemasiga qandaydir jumlaning qo`shganimizda, sistemada ziddiyat sodir bo`ladi.

-**bog`liqsizlik** – berilgan aksiomalar sistemasining u yoki bu sistemalari shu sistemaning boshqa sistemalari yordamida isbot qilinishi mumkin emas.

**Aksiomatik metod** – ilmiy nazariy qurilma bo`lib, unda nazariya asosida boshlang`ich postulat va aksiomalar qo`yiladi, qolgan barcha qoidalar (teoremlar) undan kelib chiqadi. Aksiomalar isbot talab qilmaydi, chunki uning isboti uzoq asrli kuzatishlar natijasida yuzaga kelgan. Aksiomatik nazariyada dastlabki boshlang`ich **tushunchalar, postulat, aksiomalar, teoremlar** keltirib chiqarish qoidalari asosiy o`rin tutadi. Aksiomatik nazariyaning bosqichlari:

**Aksioma:** so`zda nechta unli bo`lsa shuncha bo`g`in bo`ladi.

**Teorema:** Agar ixtiyoriy X gap inversiyaga uchramasa, **NSP**-Normal Sentence Pattern (normal gap qurilishi) ga mos kelsa, u holda ega doim kesimdan oldin keladi.

Matematik tahlil metodi tilshunoslik fani uchun ahamiyatli. Tilda mavjud hodisalar aniq matematik parametrlarda o`lchanadi. Ularning miqdoriy karakteristikalari koeffitsiyentlarda beriladi. Tilshunoslik faniga bunday yondashuv Amerikalik olim Jozef Grinberg tomonidan 1960-yilda ilk bor qo`llanilgan. Olim “til tipologiyasiga miqdoriy yondashuv” nomli maqolasida matematik tahlil metodini qo`llagan. Grinberg tavsiya etgan metod tilshunoslikda tub burilish yasadi.

Buni quyidagicha tushuntirish mumkin. O`zbek tili suffiksial tilmi yoki prefiksial til? Bu masalani yechish uchun  $\frac{M}{W}$  formulasidan foydalanamiz, bu yerda M – morf = qo`shimchalar soni, W – word = tanlangan matndagi so`zlar soni. Tanlangan matndagi hodisalarning uchrash koeffitsiyentlarini aniqlaymiz.

	1-matn	2-matn	3-matn
Suffixsal	0,75	0,76	0,78
Prefixal	0,01	0,00	0,01
	4-matn	5-matn	6-matn
Suffix	0,72	0,74	0,70
Prefix	0,00	0,01	0,00

To`plam deb shunday sistemaga aytiladiki, o`z elementlari ichida bir-biri bilan uzviy bog`liq bo`lib to`plamchalar va barqaror munosabatlar asosida quriladi.

To`plam bo`lishlikning belgilari quyidagilar.

O`z ichida bo`linuvchanlik xususiyatiga ega.

O`zini o`zi to`ldiruvchanlik xususiyatiga ega.

To`plam tashqi ko`rinishidan xaotik ko`rinsa ham aslida, ularda tartib ideal tuzilgandir.

Tillar turlicha bo`lgani uchun ulardagi o`zakni aniqlash masalasi biroz qiyin bo`ladi. Bunda biz bir so`z asosida bir necha so`zlarni yasaymiz va o`sha so`zlardagi takrorlanayotgan harflarni aniqlaymiz va aniqlangan harflar barcha so`zlar uchun umumiy hisoblanadi.

Masalan: break, broke, broken.

XIX asr boshlaridan to XX asr boshlariga qadar tillarning morfologik tipologiyasi mumtoz an'analar va tamoyillar asosida rivojlandi. Jozef Grinberg qam bu sohada noan'anaviy tadqiqotlar olib boradi. U morfologik tasnifni yangicha yondashuv - kvantitativ metod asosida tadqiq etadi. Olim matematik aniqlikka erishish maqsadida til hodisalarini miqdoriy ko`rsatkichlar asosida qayta baholaydi. Grinbergning tadqiqotida beshta muqim belgi: parametr, ya'ni mezon vazifasini o`taydi. Har bir parametr o`z navbatida bir yoki bir necha indeks (ko`rsatkich) lardan iborat. Tanlangan besh parametr quyidagilardir:

1. Sintez darajasi (degrees of synthesis)
2. Bog`lanish usuli (technique)
3. Derivatsion va aniq relyatsion tushunchalarning mavjudligi yoki yo`qligi.
4. O`zakka nisbatan qo`shimchalarning joylashish o`rni.
5. (Sintaktik) aloqa turlari (moslashuv, so`z tartibi).

Ushbu parametrlar asosida 10 ta indeks ajratib ko`rsatiladi:

1. M / W- sintez indeksi. Morpheme / word - morfema / so`z
2. A / J - agglutinatsiya indeksi. Agglutination / juncture - agglutinatsiya / chok
3. R / W – qo`shma so`z yasash indeksi. Root / word – o`zak / so`z
4. D / W - derivatsiya indeksi. Derivational / word – so`z yasovchi qism / so`z
5. I / W – so`zning o`zgarish indeksi. Inflectional / word – so`z o`zgartiruvchi qism / so`z
6. P / W - prefiksatsiya indeksi. Prefix / word - prefiks / so`z
7. S / W - suffiksatsiya indeksi. Suffix / word – qo`shimcha / so`z
8. O / W - izolyatsiya indeksi. Order / word - tartib / so`z
9. Co / N - moslashuv indeksi. Concord / nexus - moslashuv / nekusus
10. Pi / W - sof ko`rinishdagi fleksiya indeksi. Pure inflection / word - sof fleksiya / so`z.

Grinberg ushbu indekslarni turli guruhga mansub bo'lgan 8 ta tilga (sanskrit, anglo-saks, yoqut, vyetnam, fors, ingliz, suaxili, eskimos tillariga) tatbiq etdi va qiyoslanayotgan tillarda indekslarning qay darajada kuzatilishini aniqladi. Bunda olim formulalar asosida statistik ma'lumotlarni yaratdi. Masalan, sintetiklikning dunyo tillaridagi darajasini aniqlash uchun formulasidan foydalandi. Bu yerda M - ma'lum tipdagi chekli (100 so'zdan iborat bo'lgan) matn ichida uchragan morflar soni, W (inglizcha Word – so'z) - matndagi so'zlar sonidir. Hisoblash quyidagi natijalarga olib keladi: Vetnam tili uchun - 1,06 (ya'ni 100 so'zda 106 morff uchraydi), ingliz tili uchun - 1,68, sanskrit tili uchun - 2,59, eskimosk tili uchun - 3,72 dir. Natijalardan kelib chiqqan qolda olim tillarni quyidagicha baqolaydi: " 2 dan past miqdoriy ko'rsatkichga ega bo'lgan tillar (vetnam, ingliz, fors, xitoy, italyan, nemis tillari) analitik tillar, 2 dan 3 gacha miqdoriy ko'rsatkichga ega bo'lgan tillar (rus, sanskrit, qadimgi yunon, lotin, eski slavyan, chex, polyak, yoqut, suaxili tillari) sintetik tillar, 3 dan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tillar (eskimosk, ayrim kavkaz tillari, Amerika hindulari tili) polisintetik tillar qisoblanadi". Demak, Grinberg fikriga ko'ra, tekshirilgan tillar orasida analitizm kuchli bo'lgan til vetnam tili, sintetizm kuchli bo'lgan til esa eskimosk tilidir.

Tilshunoslik fani 2ga: amaliy va nazariy tilshunoslik faniga bo'linadi. Amaliy tilshunoslikning o'zi ham 2ga, ya'ni 2 bosqichga bo'linadi.

1-bosqich: matematik lingvistika

2-bosqich: kompyuter lingvistikasi.

Kompyuter lingvistikasi fani 1960-yilda AQSHda shakllangan. Kompyuter barcha jabhalarda til bilan to'qnash keladi. Lekin bu til formallashgan, ya'ni insonlarga tushunarsiz bo'lgan til. Shu ma'noda kompyuterning ishlash prinsipini quyidagicha tushuntirish mumkin.

01 MATN

kodlash dekodlash

Shunga bog'liq holda kompyuter 2 ta ta'minot asosida ishlaydi.

Texnik ta'minot.

Lingvistik ta'minot.

Bu ta'minotlar o'zaro bir-birini taqozo qilgani uchun kompyuter va tilshunoslik fani hamkorlik qiladi. Shuning natijasida kompyuter lingvistikasi fani yuzaga keldi. Fanning paydo bo'lishi obyektiv sharoitlarda yuzaga chiqadi. Kompyuter lingvistikasining yuzaga kelishiga amerikalik tilshunos olim Noam Chomskiy katta asos solgan. U o'zining "Sintaktik strukturalar" nomli tadqiqotida transformatsion grammatika g'oyasini o'rtaga tashlaydi. Bunga ko'ra muayyan bir gap ma'nosi saqlangan holda shaklan o'zgartirilib, turli xil jumlar qurish mumkin. Bunday gaplar transformaga gap deyiladi. *Kompyuterda matn bilan ishlash jarayonida transformaga g'oyasi juda muhim o'rin tutadi. Kompyuter lingvistikasi mumtoz tilshunoslikning an'alariga tayanib ish ko'radi. Uni amaliy jihatdan boyitadi. Ba'zi hollarda mumtoz tilshunoslikni inkor etadi. (ko'p ma'nolilik, omonim so'zlarni inkor qiladi) Mumtoz tilshunoslik tabiiy til qonuniyatlariga asosida ishlaydi. Kompyuter tilshunosligi va sun'iy til qonuniyatlariga bo'y sunadi. Sun'iy til programmalash tili - BASIC, PASCAL, C++.* *Lingvist va dasturchilar tomonidan kompyuter tili uchun tushunarli qilib yaratilgan til.*

1897-yil 1-bo'lib sun'iy til yaratilgan. Bu kompyuter uchun emas, butun dunyo va xalqlarni birlashtirish uchun xizmat qiladi. Sun'iy til tushunchasi tilshunoslik fanida ham bor bo'lib, u butun dunyo millatlari yagona tilda gaplashishini maqsad qilib insonlar tomonidan yaratilgan til tushuniladi. 1897-yili vrach Zamengov tomonidan Esperanto tili yaratilgan. Esperanto tili ham sun'iy til bo'lib, bu tilni butun dunyo olimlari o'rganishgan va ular o'rtasida anjumanlar bo'lib o'tganda shu tilda so'zlashishgan. Kompyuter lingvistikasi fani bo'yicha oxirgi tadqiqotlar quyidagilardir.

Sun'iy intellekt yaratish g'oyasi.

Gipertekst (katta matn) bo'yicha tadqiqotlar.

Informatsion (axborot) qidiruv bo'yicha tadqiqotlar.

Tezaurus.

Sun'iy intellekt g'oyasi kompyuter texnologiyasi rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, u XX asrning 70-yillarida vujudga keldi. Bunda sun'iy intellekt quyidagi talablarga javob berishi lozim bo'ladi.

U inson bilan muloqotda kirisha olsin

Tashqi ta'sirlarga o'z reaksiyasini bildira olsin. (qo'rqish, hayajonlanish, emotsiyaga berilish kabi)

Qisqa vaqt birligining ichida ko'p operatsiyalarni bajara olsin. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida 1-talabga qisman erishildi. Buni AQSHda so'nggi yillarda yaratilgan biokompyuterlarni misol qilib keltirish mumkin. Bu sun'iy intellekt g'oyasining 1-mevasi hisoblanadi. HYPER TEXT so'zidan olingan bo'lib, matn ustiga matn degan ma'noni bildiradi. Gipertext g'oyasi internet tizimi bilan bevosita bog'liq bo'lib bu internetda matnlar bilan ishlashni ta'minlovchi va USER ga qulaylik yaratish uchun o'ylab topilgan. Internet olami virtual olam sanalgani uchun biz undagi birinchi olamdan ikkinchi olamga hech qanday to'siqlarsiz o'ta olamiz. Mana shu virtuallikni bizga ta'minlab beruvchi tizim GIPERTEXT g'oyasidir. Internet saytlarini manzilini ko'rsatishda HTTP dan foydalanamiz. (Hyper text transfer protocol) Giper matnni o'tkazish yo'lagi.

3. Informatsion qidiruv tizimlari g'oyasi XXasrning 70-80-yillarida rivojlandi. Bunda ma'lumotlarni qisqa vaqt birligi ichida qidirib topish, kerakli hujjatlarni ma'lumotlar bazasidan topishni optimallashtirish tizimi nazarda tutiladi.

4. Tezaurus lug'atlar kompyuterga o'rnatiladigan lug'at turi bo'lib bu lug'at boshqa lug'atlardan farqli ravishda tildagi eskirgan so'zlar, tarixiy so'zlar, yangi paydo bo'lgan so'zlar, faol so'zlar, nofaol so'zlar bir so'z bilan aytganda leksikom so'zlarga kiritiladi. Tezaurus so'zi lotincha so'z bo'lib xazina degan ma'noni anglatadi.

*Tayanch tushunchalar*

Model, mulyagʻ, andoza, qolip, tabiiy modellar, matematik modellar, mantiqiy-matematik modellar, Lingvistik fakti, lingvistik birliklar, deduktivlik, mantiqiy xulosa chiqarish, xususiylikdan umumiylikka tamoyili, tafakkur eksperimenti, model - ideallashtirilgan obyekt, inson nutqiy faoliyati moderllari, lingvistik tadqiqot modellari, metamodellar, struktur va formal belgilar, aksiomatik nazariya, postulat, aksioma, teorema, sunʻiy intellekt, gipertekst, informatsion (axborot) qidiruv, tezaurus lugʻatlar.

## 2-ilova

<i>Munozara qatnashchilariga eslatma</i>
<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Munozara munosabatlar yigʻindisi emas, balki muammo yechimi uslubiyatidan iborat.</li> <li>2. Koʻp gapirmasdan boshqalarning soʻzlashiga imkon ber.</li> <li>3. Maqsadga erishish yoʻlida hissiyotlarinni jilovlab, batafsil oʻylagan holda soʻzla.</li> <li>4. Raqiblarining vaziyatini oʻrganib, ularga hurmat bilan murojaat qil.</li> <li>5. Raqiblarning tomonidan aytilgan fikrlarga tanqidiy va istehzoli yondash.</li> <li>6. Munozara predmeti boʻyicha chetga chiqmagan holda toʻgʻri yondashib gapir.</li> </ol>
<b>Muammoli seminarning boshqaruv dastqlari</b>
<p><b>Boshlovchi</b> barcha vazifalarni oʻziga oladi – munozara bosqichlarini boshqarish, javoblarning asoslanishi va toʻgʻriligini tasdiqlash, qoʻllangan termin va tushunchalarning aniqlash, munosabatlarni toʻgʻri qoʻllash va boshqalar. Taqdimotlarning taqsimotini toʻgʻri boshqarish.</p> <p><b>Taqrizchi</b> – tomonlarning maʼroʻzalarini yoʻnalishlar boʻyicha belgilash va toʻliq harakterda baholash: dolzarbligi, ilmiy jihati, mantiqiyliigi va masalalarning aniq qoʻyilganligi, xulosalarning aniq koʻrsatilishi.</p> <p><b>Raqib</b> – qabul qilingan tadqiqot oʻrtasida raqobatchilik jarayonini shakllantiradi. U faqatgina maʼroʻzachining asosiy holatini tanqid qilish emas, shu bilan birgalikda, uning aytgan fikrlaridan zaif yoki xato tomonlarini topish hamda oʻzining hal qiluvchi fikrlarini taklif qilishi ham mumkin.</p> <p><b>Ekspert</b> – barcha munozaralarning, jumladan, munozara qatnashchilari tomonidan aytilgan fikrlarning, qilingan xulosalarning, taklif va gipotezalarning maxsuldorligini baholaydi.</p>
<b>Munozara reglamentini oʻtkazish tartibi</b>
<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Boshlovchi maʼruza mavzusi va maʼruzachilarning taqdimotlarini eʼlon qiladi.</li> <li>2. Maʼruza 5 minut davom etadi.</li> <li>3. Taqrizchi – 2 minut.</li> <li>4. Raqib – maʼruza mavzusi boʻyicha fikrlarini 1-3 minut taqdim etadi.</li> <li>5. Jamoaviy muhokama – 5-10 minut.</li> </ol>

## 3-ilova.

### Muhokama va xulosalar chiqarish uchun savol va topshiriqlar

<p>Matematik lingvistika fanining amaliy ahamiyati nimadan iborat?</p> <p>Tilshunoslik va matematika orasida qanday bogʻliqlik bor?</p> <p>Matematik lingvistikaning mantiq bilan aloqadorligini qanday izohlaysiz?</p> <p>Tilda aniqlikka erishish uchun nimalar qilish lozim deb oʻylaysiz?</p> <p>Mantiqiy mulohaza deganda nimani tushunasiz?</p> <p>Konyunkniv, dizyunktiv, implikativ hukmlarga oʻzbek tilidan misollar keltiring?</p> <p>Matematik mantiq fanini kimlar (qaysi olimlar) rivojlantirgan?</p>
--

## 4-ilova

### Baholash koʻrsatkichlari va mezonlari

Baholash koʻrsatkichlari va mezonlari (ballarda)	Munozara ishtirokchilari			
	1	2	3	4
<i>Maʼruzaning mazmuni (2,5):</i>				
- mavzuga mos kelishi (1,5);				
- mantiqiylik, aniqlik (0,5);				
- xulosalarni qisqaligi (0,5);				
Informatsion texnologiyalardan foydalanganligi (koʻrgazmalilik) – (0,9).				
Reglament (0,6)				
Jami (4,0)				
<i>Maʼruzaning tavsifi (3,0)</i>				
- maʼruzaning kuchli tomonlari aniqlash (1,2)				
- maʼruzaning zaif tomonlari aniqlash (1,2)				

Reglament (0,6)				
Jami (3,0)				
<i>Savollar:</i>				
- har biri uchun (0,3)				
Qo`shimcha				
- har biri uchun (0,3)				
- mohiyati bo'yicha (0,3)				
Jami (3,0)				

5-ilova

*Mustaqil ish uchun vazifa*

*«Matematik lingvistika» mavzusini yoriuvchi slaydlar tayyorlash.*

## Mavzu: Tilshunoslikning matematika bilan munosabati

Tosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	o`qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. O`quv mashg`ulotining mavzusi maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o`tkazish rejasini aytadi. 1.2. Mashg`ulot munozara tarzida o`tishini ma'lum qiladi.	1.1. Diqqat bilan tinglaydilar va yozib oladilar.
2 – bosqich. Asosiy (45 min.)	2.1. Mavzu bo`yicha asosiy tushunchalarga tarif berishni taklif qiladi va shu asosida blits-surov o`tkazadi. 2.2. Ish guruhlarida /juftliklarda o`quv vazifani bajarilgandan so`ng “Davra suhbatı” sifatida davom ettirilishini e`lon qiladi. “Davra suhbatı” qoidalari bilan tanishtiradi ( 1-ilova). Guruhlarda ishlash qoidalarini eslatadi.	2.1. Iqtisodiy tushunchalarga tarif beradilar. 2.2. Tinglaydilar, savollar beradilar.
3-bosqich. Guruhlarda juftliklarda ishlash (20 min.)	3.1. Talabalarni guruhlarga/ juftliklarga ajratadi. Davra suhbatida muhokama qilish uchun savollar va vazifalarni tarqatma va guruhlar/juftliklarga taqsimlaydi (2-ilova). Vazifani bajarishda qo`shimcha materiallardan foydalanish mumkin emasligini tushuntiradi. Natijalarni baholash varaqlarini tarqatadi. 3.2. Guruhlarda ish boshlaganligini e`lon qiladi, maslahatlar beradi.	3.1. O`quv vazifasi, yo`riqnoma va natijalar kartochkasi bilan tanishadilar; 3.2. Vazifani bajaradilar, taqdimot varaqlarini rasmiylashtiradilar.
4-bosqich. Yakuniy (5 min.)	4.1. Ishga yakun yasaydi, umuiy xuloslar qiladi, talabalarni baholaydi. 4.2. Mustaqil ish uchun vazifa beradi.	4.1. Tinglaydilar, vazifani yozib oladilar.

### 1-ilova

Guruh bilan ishlash qoidalari
<p><i>Har bir guruh a`zosi:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- o`z sheriklarining fikrlarini hurmat qilishlari lozim;</li> <li>- berilgan topshiriqlar bo`yicha faol, hamkorlikda va mas`uliyat bilan ishlashlari lozim;</li> <li>- o`zlariga yordam kerak bo`lganda surashlari mumkin;</li> <li>- yordam suraganlarga ko`mak berishlari lozim;</li> <li>- guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;</li> <li>- “Biz bir kemadamiz, birga cho`kamiz yoki birga qutilamiz” qoidasini yaxshi bilishlari lozim.</li> </ul>

### 2-ilova

Guruhlar uchun vazifalar
<p><i>1. Guruh.</i></p> <p>1. Tilda aniqlikka erishish uchun nimalar qilish lozim deb o`ylaysiz?.</p> <p><i>2. Guruh.</i></p> <p>1. Keltirib chiqarish qoidalari deganda nimani tushunasiz.</p> <p><i>3. Guruh.</i></p> <p>1. Tilshunoslikning qaysi jabhalarini modellashtirib bo`lmaydi va nega?</p>

### Baholash ko`rsatkichlari (ballda)

Guruh	Mavzuning yechimi	Tushuntirish (aniqlik, mantiq)	Guruh faolligi (qo`shimchalar, savollar)	Jami ballar	Baho
	(1,2)	(1,2)	(0,6)	(3,0)	
1					
2					
3					
4					

*“Insert usuli”*

*Insert - samarali o`qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o`qib-o`rganishda yordam beradi. Bunda ma`ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o`qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o`z fikrini ifodalaydi.*

*Matni belgilash tizimi*

*(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.*

*(+) – yangi ma`lumot.*

*(-) – men bilgan narsaga zid.*

*(?) – meni o`ylantirdi. Bu borada menga qo`shimcha ma`lumot zarur.*

*Insert jadvali*

Tushunchalar	V	+	-	?
Matn tahriri.				
Avtomatik tarjima.				
Til o`qitishni avtomatlashtirish				
Elektron lug`atlar tuzish				
Tezaurus lug`atlar tuzish				
Kompyuter leksikografiyasi				
Ma`lumotlar ombori				
O`quv kompyuter lug`atlari				
Til o`rgatuvchi o`quv dasturlari				
Hissiy bilim				
Idrokiy bilim (nazariy bilim)				
Semiotika				
Axborot nazariyasi				
Klassik lingvistika				



## Mavzu: Tilshunoslikda matematik metodlardan foydalanish

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	o`qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. O`quv mashg`ulotining mavzusi maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o`tkazish rejasini aytadi. 1.2. Mashg`ulot munozara tarzida o`tishini ma`lum qiladi.	1.1. Diqqat bilan tinglaydilar va yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (45 min.)	2.1. Mavzu bo`yicha asosiy tushunchalarga tarif berishni taklif qiladi va shu asosida blits-surov o`tkazadi. 2.2. Ish guruhlarida /juftliklarda o`quv vazifani bajarilgandan so`ng "Davra suhbat" sifatida davom ettirilishini e`lon qiladi. "Davra suhbat" qoidalarini bilan tanishtiradi ( 1-ilova). Guruhlarda ishlash qoidalarini eslatadi.	2.1. Iqtisodiy tushunchalarga tarif beradilar. 2.2. Tinglaydilar, savollar beradilar.
3-bosqich. Guruhlarda juftliklarda ishlash (20 min.)	3.1. Talabalarni gurhlarga/ juftliklarga ajratadi. Davra suhbatida muhokama qilish uchun savollar va vazifalarni tarqatma va guruhlar/juftliklarga taqsimlaydi (2-ilova). Vazifani bajarishda qo`shimcha materiallardan foydalanish mumkin emasligini tushuntiradi. Natijalarni baholash varaqlarini tarqatadi. 3.2. Guruhlarda ish boshlaganligini e`lon qiladi, maslahatlar beradi.	3.1. O`quv vazifasi, yo`riqnoma va natijalar kartochkasi bilan tanishadilar; 3.2. Vazifani bajaradilar, taqdimot varaqlarini rasmiylashtiradilar.
4-bosqich. Yakuniy (5 min.)	4.1. Ishga yakun yasaydi, umuiy xuloslar qiladi, talabalarni baholaydi. 4.2. Mustaqil ish uchun vazifa beradi.	4.1. Tinglaydilar, vazifani yozib oladilar.

*1-ilova*

<i>Guruh bilan ishlash qoidalarini</i>
<i>Har bir guruh a`zosi:</i>
<ul style="list-style-type: none"> <li>- o`z sheriklarining fikrlarini hurmat qilishlari lozim;</li> <li>- berilgan topshiriqlar bo`yicha faol, hamkorlikda va mas`uliyat bilan ishlashlari lozim;</li> <li>- o`zlariga yordam kerak bo`lganda so`rashlari mumkin;</li> <li>- yordam so`raganlarga ko`mak berishlari lozim;</li> <li>- guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;</li> <li>- "Biz bir kemadamiz, birga cho`kamiz yoki birga qutilamiz" qoidasini yaxshi bilishlari lozim.</li> </ul>

*2-ilova*

<i>Guruhlar uchun vazifalar</i>
<p><b>1. Guruh.</b> 1. Lingvistik belgining erkinligi haqida ma`lumot bering.</p> <p><b>2. Guruh.</b> 1. Tilning belgilar sistemasi ekanligi haqida ma`lumot bering.</p> <p><b>3. Guruh.</b> 1. Semantiqada belgilarning necha turi farqlanadi? Ularni tushuntirib bering.</p>

### *Baholash ko`rsatkichlari (ballda)*

<i>Guruh</i>	<i>Mavzuning yechimi</i>	<i>Tushuntirish (aniqlik, mantiq)</i>	<i>Guruh faolligi (qo`shimchalar, savollar)</i>	<i>Jami ballar</i>	<i>Baho</i>
	(1,2)	(1,2)	(0,6)	(3,0)	
1					
2					
3					

4					
---	--	--	--	--	--

3-ilova

“Insert usuli”

**Insert** - samarali o`qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o`qib-o`rganishda yordam beradi. Bunda ma`ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o`qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o`z fikrini ifodalaydi.

Matnni belgilash tizimi

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) – yangi ma`lumot.

(-) – men bilgan narsaga zid.

(?) – meni o`ylantirdi. Bu borada menga qo`shimcha ma`lumot zarur.

Insert jadvali

Tushunchalar	V	+	-	?
Sistema				
Belgilar sistemasi				
Lisoniy birlik				
Mukammal belgi				
Yarim belgi				
Kommunikativ belgi				
Semiotika				
Lingvistik belgilar.				
Lingvistik belgi tuzilishi.				
Izoglossalar				
Areal jamoalar				
Lingvistik geografiya				
Dialektologik atlaslar				
"Til landshafti"				
Dialektal chegaralar				
Tilshunoslikning tabiiy fanlarga ta'siri				

**Mavzu: Tilshunoslik va kibernetika. Tilshunoslik va geografiya**

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	o`qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. O`quv mashg`ulotining mavzusi maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o`tkazish rejasini aytadi. 1.2. Mashg`ulot munozara tarzida o`tishini ma`lum qiladi.	1.1. Diqqat bilan tinglaydilar va yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (45 min.)	2.1. Mavzu bo`yicha asosiy tushunchalarga tarif berishni taklif qiladi va shu asosida blits-surov o`tkazadi. 2.2. Ish guruhlarida /juftliklarda o`quv vazifani bajarilgandan so`ng “Davra suhbatı” sifatida davom ettirilishini e`lon qiladi. “Davra suhbatı” qoidaları bilan tanishtiradi ( 1-ilova). Guruhlarda ishlash qoidalarini eslatadi.	2.1. Iqtisodiy tushunchalarga tarif beradilar. 2.2. Tinglaydilar, savollar beradilar.
3-bosqich. Guruhlarda juftliklarda ishlash (20 min.)	3.1. Talabalarnı guruhlarga/ juftliklarga ajratadi. Davra suhbatida muhokama qilish uchun savollar va vazifalarnı tarqatma va guruhlar/juftliklarga taqsimlaydi (2-ilova). Vazifani bajarishda qo`shimcha materiallardan foydalanish mumkin emasligini tushuntiradi. Natijalarnı baholash varaqlarini tarqatadi. 3.2. Guruhlarda ish boshlaganligini e`lon qiladi, maslahatlar beradi.	3.1. O`quv vazifasi, yo`riqnoma va natijalar kartochkasi bilan tanishadilar; 3.2. Vazifani bajaradilar, taqdimot varaqlarini rasmiylashtiradilar.

4-bosqich. Yakuniy (5 min.)	4.1. Ishga yakun yasaydi, umuiy xuloslar qiladi, talabalarni baholaydi. 4.2. Mustaqil ish uchun vazifa beradi.	4.1. Tinglaydilar, vazifani yozib oladilar.
-----------------------------------	---	---

### **Mavzu: Tilshunoslik va semiotika**

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	o`qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. O`quv mashg`ulotining mavzusi maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o`tkazish rejasini aytadi. 1.2. Mashg`ulot munozara tarzida o`tishini ma'lum qiladi.	1.1. Diqqat bilan tinglaydilar va yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (45 min.)	2.1. Mavzu bo`yicha asosiy tushunchalarga tarif berishni taklif qiladi va shu asosida blits-surov o`tkazadi. 2.2. Ish guruhlarida /juftliklarda o`quv vazifani bajarilgandan so`ng "Davra suhbat" sifatida davom ettirilishini e`lon qiladi. "Davra suhbat" qoidalari bilan tanishtiradi ( 1-ilova). Guruhlarda ishlash qoidalarini eslatadi.	2.1. Iqtisodiy tushunchalarga tarif beradilar. 2.2. Tinglaydilar, savollar beradilar.
3-bosqich. Guruhlarda juftliklarda ishlash (20 min.)	3.1. Talabalarni gurhlarga/ juftliklarga ajratadi. Davra suhbatida muhokama qilish uchun savollar va vazifalarni tarqatma va guruhlar/juftliklarga taqsimlaydi (2-ilova). Vazifani bajarishda qo`shimcha materiallardan foydalanish mumkin emasligini tushuntiradi. Natijalarni baholash varaqlarini tarqatadi. 3.2. Guruhlarda ish boshlaganligini e`lon qiladi, maslahatlar beradi.	3.1. O`quv vazifasi, yo`riqnoma va natijalar kartochkasi bilan tanishadilar; 3.2. Vazifani bajaradilar, taqdimot varaqlarini rasmiylashtiradilar.
4-bosqich. Yakuniy (5 min.)	4.1. Ishga yakun yasaydi, umuiy xuloslar qiladi, talabalarni baholaydi. 4.2. Mustaqil ish uchun vazifa beradi.	4.1. Tinglaydilar, vazifani yozib oladilar.